

5. Isakulova J. N. Theory and practice of environmental education in students // Monograph. Tashkent: Science. – 2011.

6. Исакулова Ж. Н. Укувчиларга экологик тарбия бериш назарияси ва амалиёти // Т.: "Фан". – 2011.

7. Zunnunov A., Xayrullaev M., Hotamov N., Shodiev D. O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. – T.: Fan, 1996. – 310 b

TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALINISH

**Qrig'izboyeva A., Namangan viloyati Uchqo'rg'on tumani
9-umumta'lim maktabi o'qituvchisi,
Yusupova Sh., TDPU talabasi, O'zbekiston**

Annotatsiya. Ushbu maqolada respublikamizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol ta'lim metodlarini biladigan, ulardan o'quv va tarbiyaviy mashg'ulotlarni tashkil etish, pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarini kasbga tayyorlash jarayonida kollaj metodidan foydalangan holda talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi yoritilgan.

Калит сўзлар: билим, малака. таълим, тарбия, ислохот, инновация, метод, технология, самара, сифат, фаоллаштириш.

Respublikamizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar jamiyat hayotining barcha sohalarida uchun kadrlar tayyorlash ishini zamonaviy darajada olib borishni talab qiladi. Shu munosabat bilan mutaxassislar tayyorlash jarayonida ilg'or ta'lim texnologiyalaridan unumli foydalanishni tashkil etish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Vatanparvar ajdodlarimizning bu boradagi ma'ruzalarida bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarda muhim dasturulamalar bo'lmoqda. Prezidentimiz konstitutsiyaviy islohotlar zaruriyati haqida gapirganda, ta'lim, ilm-fan va innovatsion rivojlanish, ayniqsa o'qituvchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash masalasiga alohida e'tibor qaratishi zamirida ham shu maqsad mujassamlashgan. Davlatimiz rahbari bu borada Oliy Majlis va xalqimizga Murojaatnomasida alohida to'xtalib, "Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir", deya ta'kidlagan edi.

Ta'lim to'g'risidagi qonunning "Ta'lim oluvchilarning huquqlari" deb nomlangan 47-moddasida o'quv mashg'ulotlarini sifatli o'tkazishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, o'qitish va tarbiyaning ilg'or hamda innovatsion shakllari va usullaridan foydalanishi yoritib o'tilgan.

Ta'lim jarayonining bugungi vazifalaridan biri o'quvchilarni kun sayin oshib borayotgan axborot-ta'lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iborat. Buning uchun ularga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur. Bundan esa, ta'lim jarayonida ta'lim oluvchining diqqat markazida bo'lishini xamda yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta'minlash ta'lim samaradorligini oshirish uchun zamin yaratadi. Ta'lim jarayonida ta'lim oluvchining diqqat markazida bo'lishini ta'minlash uchun ta'lim muassasalariga o'z sohasidagi bilimlarni mustahkam egallashdan tashqari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol ta'lim metodlarini biladigan, ulardan

o'quv va tarbiyaviy mashg'ulotlarni tashkil etishda samarali foydalana oladigan zamonaviy pedagoglar kerak.

Ta'lim metodlari muayyan pedagogik jarayondan ko'zda tutilgan maqsadlarga erishish uchun bajarish lozim bo'lgan vazifalarni amalga oshirishda qo'llaniladigan turli-tuman ish usullari va shakllarini o'z ichiga oladi. Bu ishlarni amalga oshirishning shakllangan va amaliyotda qo'llanilayotgan har turli usullari va shakllari asosida ko'plab ta'lim metodlari hosil bo'lgan va bu jarayon davom etmoqda. Muayyan ta'lim-tarbiyaviy maqsadga qaratilgan biror harakatni amalga oshirish yo'li, usuli yoki ko'rinishidan iborat bo'lib shakllangan faoliyat shu maqsadga erishishga xizmat qiluvchi o'ziga xos ta'lim metodini hosil qiladi.

Interfaol metod va axborot texnologiyalaridan foydalanish ta'lim-tarbiya jarayonida yangi istiqbollarni ochadi va ta'lim sohasini modernizatsiya qilish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Axborot kompetentsiyasi insonning bilim darajasi va kasbiy kompetentsiyasini belgilaydi, ijodiy fikrlash esa nostandart muammolarni hal qilish yoki muammoli vaziyatga printsiptial jihatdan yangi yondashuvlarni topish qobiliyatini belgilaydi.

Tarbiya fani o'qituvchisi uchun kasbiy tayyorgarlikning eng muhim vazifalaridan biri o'quvchilarning ijodkorligini rivojlantirishdir. Shu munosabat bilan o'qitish usullari o'quvchilarni jodkorligini oshirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Bu usullar orasida kollaj usulini badiiy ijodning alohida turi sifatida qayd etish lozim. Axborot jamiyatiga o'tish sharoitida zamonaviy ilg'or texnologiyalarni puxta egallagan pedagog kadrlarni tayyorlash zarur. Bu tanlangan metodologiyaning dolzarbligini belgilaydi.

Metodning maqsadi pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarini kasbga tayyorlash jarayonida kollaj metodidan foydalangan holda talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqishdan iborat.

Kollaj - bu umumiy g'oyaviy va estetik ta'sirni kuchaytirish uchun turli xil uslubdagi ob'ektlar yoki mavzularni o'rnatish orqali adabiyot va san'at asarlariga kiritish. Kollajni yaratishdan maqsad bir-biriga o'xshamaydigan materiallar, uslublar va manbalar kombinatsiyasining aniq ajablantiradigan ta'siri bilan grafik illyustratsiya bo'lishi mumkin.

Kollaj asosan improvizatsiya usuli sifatida, bir-biriga mos kelmaydigan elementlar, uslublar, yondashuvlar va mos kelmaydigan narsalarning kombinatsiyasi tufayli aniq tasvirni olish uchun ishlatiladi. Shu nuqtai nazardan, kollajni tasavvur, fazoviy tafakkur, ranglarni idrok etish, estetik madaniyatni shakllantirish va hissiy sezgirlikni rivojlantirishga yordam beradigan badiiy ijod elementi sifatida tushunish kerak. Badiiy ijodning ko'nikma va qobiliyatlari ijodga bo'lgan ehtiyojni qondirish, yaratish, o'zgartirish, yaratish zarurligini anglash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Азизхужаева Н. Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат. Ўқув қўлланма. – Т., 2006. – 159 б.
2. Ахунова Г.Н., Голиш Л.В., Файзуллаева Д.М. Педагогик технологияларни лойиҳалаштириш ва режалаштириш. Ўқув услубий қўлланма. - Т.: 2009. 155 бет.
3. Инновацион таълим технологиялари ва педагогик компетентлик модули бўйича ўқув-услубий мажмуа. (Тузувчилар: Н.А.Муслимов, М.Усмонбоева, М.Мирсолиева). – Т., 2016. – 227 б.
4. Isakulova N. Using the Venn Diagram in Teaching Geography Terms //Journal of Pharmaceutical Negative Results. – 2022. – C. 2519-2523.

5. Isakulova N. USE OF BLITS-QUESTION METHODOLOGY IN TEACHING TERMS OF GEOGRAPHY //European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2022. – T. 2. – №. 06. – C. 84-88.

6. Авлаев О.У., Жўраева С.Н., Мирзаева С.Р. Таълим методлари. – Т., 2017. – 204 б.

BOLA SHAXSINI SHAKLLANISHI VA AXLOQIY TARBIYANI IZCHIL VA TARTIPLI AMALGA OSHIRISHBA OILANING O'RNI

Rahimova D.M., TDPU tadqiqotchisi, O'zbekiston

Annotatsiya. Yoshlarga oilaviy hayot haqidagi ilmiy bilimlarni berishning ahamiyati shundan iboratki, o'spirin yoshlarni oilaviy hayotga yetuk qilib shakllantirishda ularda oilaviy munosabatlar to'g'risidagi ijtimoiy-psixologik tasavvurlarini shakllantirish, to'laqonli baxtli oila qurish uchun kasb-hunarga ega bo'lish zaruratini singdirish, nikohga yetuklik uchun nikoh omillari va oilaning asosiy funksiyalari haqidagi tasavvurlarini shakllantirish orqali ularni oilaviy hayotga tayyorlashga erishish tadqiqotimizda alohida ahamiyatga molikdir.

Tayanch tushunchalar: Shaxs, shaxsning psixologik tuzilishi, shaxs rivojlanishi, shaxsning o'zini anglashi va o'zini bilishi o'z xulq-atvorini boshqarishi.

O'zbekiston yangi davr Uchinchi renesans davrga qadam bosayotgan bir pallada Prezidentimizning dono siyosati tufayli Respublikada yoshlarimiz yuksalishiga qaratilgan e'tibor davlat ahamiyatiga molik bo'lgan masalalar qatorida rasmiy ravishda o'rin oldi. O'zbekiston respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev: "Sizlarga yaxshi ma'lum "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz" degan shior keng tarqalib, hayotimizga tobora chuqur kirib bormoqda. Lekin O'zbekistonimizning mana shunday yorug' va farovon istiqbolini bunyod etishdek mas'uliyatli vazifani kim o'z zimmasiga oladi?

Albatta, faqat zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni puxta egallagan, mustaqil fikrlaydigan, doimo el-yurt taqdiriga daxldorlik tuyg'usi bilan yashaydigan siz, aziz yoshlarimiz maydonga dadil chiqib, bugungi kunda hayotning o'zi oldimizga qo'yayotgan vazifalarni hal etishga qodirsiz" [1] deb ishonch bildirgani barchamiz uchun yuksak ahamiyatdga egadir. Jamiyatni o'sib rivojlanishi, unig ravnaqi o'sib kelayotgan yosh avlodning qo'lidadir. Yoshlarni ilm va fanni o'zlashtirishi, ta'lim tizimida kasb-hunarni egallashi bir qatorda endi ularda o'z shaxsiy hayotlarini rejalashtirish va oila qurishga intilish hissi tarkib topa boshlaydi. Bu davrga kelib yoshlarda oilaviy munosabatlarga turli xil qarashlar paydo bo'la boshlaydi. Yoshlarni ma'nan va ruhan barkamol etib shakllantirish, ularning ruhiyatiga to'g'ri ta'sir eta olish zaruriyati tug'iladi. Yoshlarni oila qurishda qoqilmay, balki yetarlicha tasavvurga ega bo'lib, oilaviy hayotga yetuk qilib shakllantirish, oiladagi deformatsiyalarni oldini olish –hozirgi zamon dolzarb muammolaridan biridir. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, o'spirinlar oilaviy hayotga biologik jihatdan yetuk bo'lishi bilan birga, psixologik jihatdan yetukligi ham kelajakda baxtli oila qurish imkoniyatini kafolatlaytdi. Zero oila mustahkamligi jamiyat mustahkamligidir.

Oilaviy munosabatlar haqida O'zbekistonda ham qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan va olib borilmoqda. Olimlar asosan oilaning milliy xususiyatlari yo'nalishida ish olib borganlar. Oilaviy hayotga yetuklikning ijtimoiy-psixologik omillari masalasi bugun ilmiy muammo sifatida diqqaimiz markazida turibdi. Ayniqsa, keyingi yillarda ajrimlar